

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

G.M.Bozorova	
Sayyid Sharif Jurjoniyning ontologik va gnoseologik qarashlari.....	115
L.S.Sultonova	
Sharq allomalarining ilmiy merosida bag'rikenglik va murosa madaniyati masalasi va uning yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni.....	119
U.K.Kurbanova	
Abu Ismoil Abdulloh Ansoriy tasafuviy qarashlarining falsafiy tahlili	124
M.H.Mo'minova	
Ibn Sino asarlari va risolalarining ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni	128
K.J.Ochilova	
Imom At-Termiziya oid tadqiqotlarning ilmiy tahlili	132
B.X.Karimov	
Ongni boshqarish falsafasi.....	136
R.S.Raupova, Sh.Bobokalonova	
Abu Ali Ibn Sino buyuk faylasuf va gumanist olim	141
P.X.Qaxorov	
Zamonaviy jamiyatda inson qadri va axloqiy me'yorlarning o'zgarishi	147
U.M.Paxriddinov	
Globallashuv jarayonlarining O'zbekistondaga mehnat migratsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-falsafiy tahlili	152
Z.B.G'ulomov	
Dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni ijtimoiy fikr va jamoatchilik nazorati asosida tartibga solish istiqbollari.....	158
A.A.Tojiddinov	
Abu Ishoq Kalobodiy ilmiy merosining zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilishi masalalari	164
G.A.Qamariddinova	
"Rashahotu aynil-hayot" asaridagi rashhalarda jamiyat rivojlanishiga doir g'oyalarning falsafiy tahlili	172
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili.....	175
H.H.Yuldashxodjaev	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili (2-qism).....	180
Z.I.Narziyev	
Aziziddin Nasafiyning "Tanzil" asari - tasavvuf falsafasiga oid muhim manba	185
M.M.Mamasaliyev	
Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqtatlilik qadriyatlarining falsafiy-intellektual asoslari.....	189

SIYOSAT

T.A.Azizov	
Favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etishga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining xorij tajribalarini qo'llash imkoniyatlari	193
S.U.Yuldashev	
Davlat boshqaruvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ratsionallashtirish	197
O'.N.Ahmedova	
Kuchli ijtimoiy siyosat va ma'nnaviy tarbiya strategiyasi	201
X.R.Ikramov	
Yangi O'zbekistonda fuqarolik xizmati sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash zaruriyati	205
A.M.Abjalov	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati	210
G.B.Umarova, A.Nurullaeva	
Mahalla – totuvlik va bag'rikenglik omili: Markaziy Osiyo mintaqasi tajribasi	214
S.S.Yakubov	
Kanada: milliy birlikka erishish tajribasi	218



УО'К: 001.891

**DEZINFORMATSION ZIDDIYATLAR SHAROITIDA YOLG'ON AXBOROTLARNI IJTIMOIY
FIKR VA JAMOATCHILIK NAZORATI ASOSIDA TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI**

**ПЕРСПЕКТИВЫ РЕГУЛИРОВАНИЯ ЛОЖНОЙ ИНФОРМАЦИИ В УСЛОВИЯХ
ДЕЗИНФОРМАЦИОННЫХ КОНФЛИКТОВ НА ОСНОВЕ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ И
ОБЩЕСТВЕННОГО КОНТРОЛЯ**

**PROSPECTS FOR REGULATING FALSE INFORMATION IN THE CONTEXT OF
DISINFORMATION CONFLICTS BASED ON PUBLIC OPINION AND PUBLIC OVERSIGHT**

G'uulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li 
Farg'ona davlat universiteti tadqiqotchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarning tarqalishi va ularning jamiyatga ta'siri tahlil qilinadi. Xususan, ijtimoiy fikr va jamoatchilik nazoratining ushbu jarayondagi o'mni, shuningdek, dezinformatsiyaga qarshi samarali kurash strategiyalari muhokama etiladi. Tadqiqotda global tajribalar, demokratik jamiyatlarda dezinformatsiyaga qarshi ishlab chiqilgan mexanizmlar va ularning amaliy natijalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, media savodxonlikni oshirish, faktlarni tekshirish tizimlarini rivojlantrish hamda axborot manipulyatsiyalariga qarshi huquqiy asoslarni mustahkamlash istiqbollari tahlil qilinadi. Maqola dezinformatsiyaning ijtimoiy muhitga ta'sirini kamaytirish va axborot makonining barqarorligini ta'minlash yo'llarini aniqlashga qaratilgan.

Annomatsiya

В данной статье анализируется распространение ложной информации в условиях дезинформационных конфликтов и ее влияние на общество. В частности, рассматривается роль общественного мнения и гражданского контроля в этом процессе, а также обсуждаются эффективные стратегии борьбы с дезинформацией. В исследовании изучается мировой опыт, механизмы, разработанные в демократических обществах для противодействия дезинформации, и их практические результаты. Кроме того, анализируются перспективы повышения медиаграмотности, развития систем проверки фактов и укрепления правовых основ против информационных манипуляций. Цель статьи – определить пути снижения влияния дезинформации на социальную среду и обеспечения стабильности информационного пространства.

Abstract

This article analyzes the spread of false information in the context of disinformation conflicts and its impact on society. In particular, the role of public opinion and civic oversight in this process, as well as effective strategies to combat disinformation, are discussed. The study examines global experiences, mechanisms developed in democratic societies to counter disinformation, and their practical outcomes. Additionally, prospects for improving media literacy, developing fact-checking systems, and strengthening legal frameworks against information manipulation are analyzed. The article aims to identify ways to reduce the impact of disinformation on the social environment and ensure the stability of the information space.

Kalit so'zlar: ijtimoiy fikr, jamoatchilik, nazorati, axborotlashgan jamiyat, yolg'on axborot, dezinformatsiya, axborot siyosati, "feyk xabarlar", globallashuv.

Ключевые слова: общественное мнение, гражданский контроль, информационное общество, ложная информация, дезинформация, информационная политика, «фейковые новости»,

Key words: public opinion, civic oversight, information society, false information, disinformation, information policy, "fake news," globalization.

KIRISH

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida ham davlat siyosatini aniq belgilab olish, yolg'on axborotlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish, to'g'ri axborotlarni olish imkoniyatlarini kengaytirish, «feyk» axborotlar va ularning ijtimoiy ta'sirini bartaraf etishga doir choratadbirlar asosida "ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarni o'z vaqtida berib borish orqali yolg'on ma'lumotlar tarqalishining oldini olish"^[6] ga qaratilgan axborot siyosatini amalga oshirish masalalari dolzarblik kasb etmoqda. Buning uchun yolg'on axborotlar asosida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ijtimoiy nizolar va ziddiyatlarni oldini olish, yolg'on axborotlarni jamoatchilikka ta'sirini kamaytirish, ularni tekshirish usullari va imkoniyatlarini oshirish, axborot

FALSAFA

iste'moli madaniyatini shakllantirish asosida «feyk» xabarlar ta'sirida jabr ko'rish holatlarini oldini olishga qaratilgan davlat dasturlari, ijtimoiy loyihalar va ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLLILI VA METODOLOGIYASI

dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni tekshirish va tadqiq etish masalalari ijtimoiy siyosiy hayotdagи muhim jarayon sifatida ko'plab olimlar, tadqiqotchilarining diqqat-e'tiborini jalg etgan masaladir. Ayniqsa, ushbu jarayonda davlatning axborot siyosati, uning o'ziga xos xususiyatlari, ommaviy axborot vositalarining o'rni va roliga bag'ishlangan bir qator asarlar yaratilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida yaratilgan asarlarni shartli ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

Birinchi guruhga O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning demokratik taraqqiyot sharoitida tinchlik, barqarorlik, millatlararo hamjihatlikni ta'minlashda axborot omili, ommaviy axborot vositalarining ahamiyati, demokratlashtirish sharoitida davlat va xalq muloqoti, g'oyaviy kurash sharoitida davlatning oldida turgan vazifalari haqida yaratilgan konseptual asarlari kiradi. Ushbu asarlar shunisi bilan ahamiyatliki, ular dissertatsiya ishining fundamental-uslubiy asosini tashkil etsa, sohaga tegishli qonun hujjatlari, Prezident farmonlari, qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar tadqiqotning me'yoriy, huquqiy va uslubiy bazasi bo'lib xizmat qiladi.

Masalaning e'tiborli jihat shundaki, dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni tekshirish metodologiyasi o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmiy tadqiqotlar obyektiga aylana boshladi. Shu bois, axborot siyosatining aynan globallashuv ta'sirida shakllanishi ham nisbatan yangi mavzu hisoblanadi. Taniqli G'arb olimlaridan E.Giddens, E.Toffler, S.Xantington, F.Fukuyama, D.Xolms, P.Ximanen va M.Kastels kabi mutaxassislar o'z izlanishlarida axborotlashgan jamiyatning vujudga kelishi, bunday jamiyatlarning rivojlanish tendensiyalarini keng yoritib bergenlar. G'arb olimlarining ushbu ilmiy muammolarga bag'ishlangan asarlarini ikkinchi guruh adabiyotlar sifatida e'tirof etish mumkin.

Uchinchil guruhga mansub adabiyotlar sifatida bugun kunda MDH hamda boshqa xorijiy mamlakatlarda dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni tekshirish metodologiyasining mazmun mohiyatini ifodalovchi asarlari bilan tanilgan olimlarning izlanishlarini kiritish mumkin. Xususan, YU.Nisnevich, A.Devyatov, I.Ilin, A.Ursul, X.Malik, P.Morozov, E.Brandman, A.Manoylo, M.Abramson, D.Garson, M.Uoters, I.Jerald kabi olimlar o'z asarlarida globalashuv jarayonining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'siri, global taraqqiyot va umuminsoniy muammolar, globalashuv sharoitida axborot va hokimiyatning o'zaro munosabati masalalari, davlatning axborot siyosati hamda strategik jihatlari masalalariga e'tibor qaratganlar.

O'rganilgan adabiyotlar, axborot manbalari tahlili shuni ko'rsatadiki, dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni tekshirish metodologiyasi, ustuvor yo'naliishlari va ilg'or xorijiy tajribalarni tahlil qilish muammosi aynan O'zbekiston misolida falsafa fanlari doirasida alohida mavzu sifatida tadqiq etilmagan.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Axborotlar sohasining tez sur'atlar bilan o'sishi, uni avtomatlashtirish usullarining rivojlantirilishi raqamli texnologiyalarning yaratilishiga va kishilar hayotining turli sohalarini raqamlashtirilishiga olib keldi.

Jahon tajribasida jamoatchilik nazorati orqali davlat boshqaruvida ishtirok etish istagi kuchayib bormoqda. O'tgan asr siyosiy jarayonlarida fuqarolarning siyosiy mafkura ta'siri asosida yashashi va jamiyatning siyosiyashuvi kuchaydi. MDH davlatlarida jamoatchilik nazoratining shakllanish dinamikasiga e'tibor beradigan bo'lsak, ularda siyosiy sohaga siyosatdan xabardor bo'limgan odamlarning aksariyati jalg qilinmaydi.

Xorijiy OAVda salbiy va soxta axborotni chop etish orqali davlatning etakchi siyosatchilar ruhiyatiga ta'sir etish va jamoatchilik kayfiyatini o'zgartirish tajribasi mavjud. Xorijiy davlatlarda davlat hokimiyatining oliy organlarida salbiy ma'naviy-ruhiy vaziyat manfaatdan kelib chiqib boshqariladi. Ayrim "OAV tuzilmalarida strategik maqsad sifatida davlat rahbariyatini obro'sizlantirish va zaiflashtirish masalalari reja asosida amalga oshiriladi. Rivojlangan mamlakatlarda oshkoralikni yuzaga keltirish hamda axboriy-psixologik qarshilik ko'rsatish, jamoatchilik nazorati va jamiyat barqarorligini saqlab qolishning ustuvor yo'naliishlari ishlab chiqilgan"[7].

Jamoat tashkilotlari orqali olib boriladigan jamoatchilik nazoratining ahamiyatli tomonlari va xususiyatlari quyidagi tamoyillarda namoyon bo'ladi: jamiyat va shaxs manfaatlarining

ustunligi; bunday jamoatchilik nazoratining keng qamrovliligi, ya'ni u ijtimoiy hayotning barcha jabhalari va sohalarida amalga oshirilishi; uning ommaviyligi, ya'ni har bir fuqaro va fuqarolar guruhlari uchun bunday nazoratda istisnosiz ishtirot eta olish imkoniyatining mavjudligi; oshkoraliq, ya'ni uni amalga oshirish jarayoni ham, natijalari ham barcha uchun ochiqligi va bu nazoratning ommaning nigohi hamda kuzatuvida amalga oshirilishi; nazoratni o'tkazishning ixtiyorilik va beg'arazlilik asosida bo'lishi; uni amalga oshirish jarayonida davlat organlari, mansabdor shaxslar, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga bevosita aralashmaslik va boshqalar.

"Jamoatchilik nazoratining mavjudligi – demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat taraqqiyotining muhim shartidir. Aynan jamoatchilik nazorati orqali fuqarolar va jamoat tuzilmalari jamiyat hayotidagi muammolarning echimini topishga erishadilar"[8]. Demak, jamoatchilik nazorati institutini qaysidir ma'noda jamiyat hayotidagi kamchiliklarni bartaraf etishning, mavjud muammolarning echimini topishning, davlat va jamiyatni rivojlantirishning, fuqarolik jamiyatni barpo etishning muhim usuli hamda vositasi sifatida baholash mumkin.

Ma'lumki, "muayyan bir hududda axborot maydoni kengayib borar ekan, o'sha davlatda axborotlashtirish, axborot resurslari va axborot tizimlaridan foydalanish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish zaruriyatiga ham ehtiyoj tug'ilib boraveradi. Yurtimizda ham bu borada tegishli sa'y-harakatlar amalga oshirilgan. Chunonchi, bular "Axborotlashtirish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida o'z ifodasini topgan"[9]. Jumladan, "mazkur qonunning 2-moddasida har kimning axborotni erkin olish va tarqatishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish, axborot resurslaridan erkin foydalanishini ta'minlash, davlat organlarining axborot tizimlari, tarmoq va hududiy axborot tizimlari, shuningdek, yuridik hamda jismoniy shaxslarning axborot tizimlari asosida O'zbekiston Respublikasining yagona axborot makonini yaratish nazarda tutiladi"[9]. Shuningdek, xalqaro axborot tarmoqlari va Internet jahon axborot tarmog'idan erkin foydalanish uchun sharoit yaratishga alohida urg'u beriladi.

Bundan anglashiladiki, "axborot siyosati"ga garchi milliy va umumbashariylik nisbati o'laroq qaralsada, aslida ma'lumotni qabul qilish va tarqatishning yaxlit tizimi barpo etilishi jamiyat uchun nihoyatda muhim hisoblanadi. Chunki bugungi globalashuv sharoitida xolis va uydurma axborotni bir-biridan farqlay olish, iste'molchi haq-huquqlari poymol etilmasligini ta'minlash, eng asosiysi, noto'g'ri ma'lumotlar tarqatilishining kengayib ketishiga yo'l qo'ymaslik, bu yo'nalishda qilinishi shart va zarur bo'lgan amaliy ishlarni jamiyat oldiga ko'ndalang qilib qo'yadi. Biz buni davlat axborot siyosatida "ma'lumotlar banki" sifatida ham baholashimiz mumkin. Masalan, norma, pravo, lex.uz tizimlari.

Axborotning aynan siyosatga xizmat qilishining asosiy sababi, uning hozirda o'zaro ta'sir ko'rsatish instrumenti sifatidagi ahamiyatining ortib borayotganligi bilan izohlash mumkin. Quyida uning ayrim salbiy va ijobiy jihatlarini ko'rib chiqamiz. Hozirda eng muhim tendensiyalardan biri – jamoatchilik fikrini shakllantirish va uni o'z siyosiy manfaatlariga qarata yo'naltirish uslubi G'arb davlatlarining eng dolzarb axborot strategiyasiga aylangan bo'lib, unda dastlab ma'lum bir davlat yoki jamiyatga nisbatan xos pozitsiyalar ishlab chiqiladi, shundan so'ng uning nozik tomonlariga nisbatan keng miyosli axborot xurujlari amalga oshiriladi. O'z aholisi ongida nishon bo'layotgan davlatga nisbatan har xil bo'xtonlar, uydirmalarga asoslangan turli axborotlar ishlab chiqiladi va tarqatiladi. Buning natijasida jamoatchilik fikri shakllantiriladi va keyingi faoliyat uchun asosiy baza vujudga keltiriladi. O'zlarining qo'lida bo'lgan axborot tarqatishning turli vositalari, ya'ni televideniya, radio, gazeta, internet va hokazolar yordamida nishon jamiyatdagи holatlar o'zları uchun katta xavf ekanligi, bundan samarali himoyalanish uchun esa tezroq maqsadga erishish kerakligi, buning uchun esa katta moliyaviy manbaalar kerak bo'lishi xalqning ongu-shuuriga chuqr singdiriladi.

Ikkinci taktik qadam sifatida esa o'z nishoni bo'lgan jamiyatga qaratilgan turli axborotlar yo'naltiriladi. Bunda asosiy e'tibor o'sha jamiyat ichida turli xil uydirmalarni avj oldirish maqsadida har xil ijtimoiy tarmoqlar yordamida axborotlar tarqatiladi, o'z auditoriyasi hosil qilinadi va, eng muhimi, beqarorlikka olib keladigan turli xabarlar yoyiladi. Bunday holatdagi eng muhim xususiyat esa –boshqariladigan axborot oqimlari yordamida turli "tashabbuslar" o'rta ga tashlanadi va auditoriyaga taqdim etiladi.

Uchinchchi taktik "yurish"ni – o'z jamiyatlarida, davlatlarida nishon davlat yoki jamiyat o'ta salbiy omil ko'rinishida ko'rsatilishini kuzatish mumkin. Bunga misol tariqasida "Arab bahori"ni keltirish kifoya. O'z manfaatlariga mos kelmagan ba'zi davlatlarda muxolifatning keng qo'llab-quvvatlanishi, ular uchun barcha zaruriy shart-sharoitlarning yaratilishi, ularning moddiy va axborot vositalari bilan keng ta'minlanishidan tortib, zamonaviy qurol-aslahalargacha etkazib berilishini ko'rishimiz mumkin.

FALSAFA

Bunday xavflardan ogoh bo'lish esa har qanday davlat va jamiyatning eng muhim va ustuvor vazifalariga aylanmog'i lozim.

Biz yuqorida keltirgan "uch taktika"ning jamiyatga singdirilishi o'z-o'zidan bo'lmaydi, albatta. Bunda asosiy omil g'oyaviy va axboriy bo'shiqning yuzaga kelishidir. Modomiki shunday ekan, har qanday davlat axborotni tartibga solish barobarida o'z milliy bazasini tinimsiz takomillashtirib borishi, zamon andozalariga muvofiq yangi-yangi tendensiyalarga moslashishi, muntazam ravishda bo'shiqlar yuzaga kelmasligining oldini olishi lozim.

Aynan O'zbekiston misoldida bu boradagi normativ-huquqiy hujjatlar bazasi qanday shakllantirilganini tadqiqotimizning birinchi bobida alohida keltirib o'tishga harakat qildik. Demak, mamlakatimiz olimlari, ekspertlari va axborot sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – hayotbaxsh islohotlar mohiyatini sodda tilda tushuntirish barobarida mamlakatimizga, xalqimiz ongu-tafakkuriga, barqaror va tinch, osoyishta hayotimizga rahna solishi mumkin bo'lgan axborot xurujlariga qarshi kurashish, axborot va ma'naviy-mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga doir ilmiy izlanishlarni, tadqiqotlarni, amaliy tavsiyalarni yana-da ko'paytirish va ularning sifatini oshirishdan iborat.

Endi "axborot siyosati" sharoitida jamoatchilik nazorati tushunchasining tatbiq etilishi masalalariga to'xtalsak. Agar yuridik adabiyotlarga murojaat qilsak, jamiyat a'zolari va uning alohida boshqaruvchi subyektlari hamda boshqa ijtimoiy guruhlarning xati-harakatlari umum qabul qilingan me'yorlar va qadriyatlarga muvofiq ravishda amalga oshirilishini kafolatlaydigan ijtimoiy usul va vositalar "jamoatchilik nazorati" degan atama bilan ifodalanadi. Unda nazorat tushunchasi xususida hali bir to'xtamga kelinmagan.

Ko'pgina huquqshunos-olimlarning asarlarida nazorat tizimi, uning turlari va shakllari, organlari haqidagi masalalar ham hanuzgacha o'rganilmagan. Jumladan, V.E.CHirkin taxminiga ko'ra, davlat nazorati "bu umumi kumulyativ faoliyat bo'lib, u yagona maxsus davlat boshqaruvini bajarishda turli metodlardan foydalanish orqali amalga oshiriladi"[10].

D.N.Baxraxning ta'kidlashicha, "ijtimoiy boshqaruv tizimlaridagi nazorat bu – "qaytar aloqalarning shunday bir turki, bunda hokimiyat subyektlari ishlarning aslida qanday amalda bajarilganligi haqidagi axborotga ega bo'ladilar"[11].

Demokratiya ochiqlik va oshkorali kni, davlat siyosati va xalq o'rtaida doimiy aloqaning mavjudligini talab qiladigan bo'lsa, o'z navbatida, ochiqlik, oshkorali va hatto demokratianing o'zini ham erkin va mustaqil matbuotsiz, axborot vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Demokratik tizimning eng muhim tarkibiy qismlaridan bo'lgan parlament, siyosiy partiylar, ijro hokimiyatidan tortib, mustaqil sud tizimi kabilar bilan bir qatorda turadigan OAVlar beziz "to'rtinchi hokimiyat" sifatida baholanmaydi. Zero, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan va olib boriladigan axborot siyosati "mavjud barcha OAVlar uchun imkoniyatlar kengayishini, ularning bosimlardan himoyalanishi, ular faoliyatiga aralashmaslikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi lozim". Biroq, bunda qonun amal qilishini qo'llab-quvvatlash tamoyili, jumladan, ularning iqtisodiy faoliyatini va ochiqligi tartibga solinishini ham nazarda tutishi lozim. Ushbu siyosat "yagona axborot makoni shakllanishini, inson va fuqaroning axborot olish huquq va erkinligini amalga oshirishning davlat tomonidan kafolatlanishi bir tekis olib borilishini, hududiy matbuotlarga moddiy yordam ko'rsatilishini o'z ichiga oladi"[12].

Demak, shu o'rinda haqli savol tug'iladi:

- Xo'sh, to'rtinchi hokimiyat sifatida baholanadigan OAVning asosiy xususiyatlari, vazifalari, ulardan farqli tomonlari nimalarda namoyon bo'ladi?

- Jamoatchilik nazorati sifatida maydonga chiqayotgan institutning o'rni va ahamiyati mustahkamlanishida OAVning missiyasi nimalarda o'z aksini topadi?

- Umuman olganda, bugungi kunda "demokratianing tabiiy mevalari"[7] sifatida insoniyatning eng katta ehtiyojiga aylangan OAV qanday tamoyillar asosida ish olib borsa demokratianing muhim vositasiga aylanadi, uni to'ldirib turadi?

Birinchidan, OAV o'zidan oldingi hokimiyatlardan, ya'ni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatidan, avvalo, ko'zga ko'rinxmasligi, ya'ni, buyruq bera olish, qonunlar ishlab chiqish, kimnidir qandaydir aybi, qonunbuzarligi uchun javobgarlikka tortish yoki jazolay olish funksiyalari yo'qligi bilan ajralib turadi. Uning yagona quroli – bu so'z bo'lib, qachonki huquqiy jihatdan OAVlar uchun barcha zaruriy shart-sharoit va imkoniyatlar yaratiladigan bo'lsa, ular o'z qurollari, ya'ni so'z orqali

jamiyat va davlat hayotida ro'y berayotgan barcha muammolarni, kamchiliklarni, mamlakat hayotiva taraqqiyotiga daxldor dolzarb masalalarni jamoatchilik e'tiboriga etkaza oladilar. Bunda hamma gap OAVlarning jamoatchilik fikrini shakllantirishi va jamoatchilik nazoratini institutsional tarzda tashkil qila olishidadir. Zero, jamoatchilik nazorati bugungi demokratianing eng muhim ehtiyoji va talabiga aylanib ulgurdi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, OAVlar jamiyat uchun faqatgina axborot tashish va etkazish bilangina emas, balki insonlarning u yoki bu masalalarda fikrlashga, ba'zi bir voqeliklar, hodisalar, ayrim shaxslar faoliyatini baholashga, biror-bir guruh, siyosiy partiya yoki tashkilotlarning, hukumatning faoliyati bilan qiziqishga, jamiyat muammolarini hal qilishning samarali yo'llarini izlashga undaydi. Eng muhimi, OAV har qanday jamiyatda muhim axborot ta'minoti rolini bajarib, jurnalist va xalq o'rtasida vosita vazifasini bajaradi va kommunikatorlikdan kommunikatsiyaning vujudga kelishiga ko'maklashadi.

Ikkinchidan, OAV demokratik jamiyatda nafaqat hokimiyatning targ'ibot-tashviqot quroli, balki aynan uning faoliyatini, kamchiliklariyu yutuqlarini jamoatchilik e'tiboriga havola qiladigan vosita bo'lmosg'i lozimligini alohida qayd qilishimiz lozim. OAV faoliyatining bunday sifat holatiga erishishi esa o'z-o'zidan amalga oshmaydi. Ayniqsa, fuqarolik jamiyatining shakllanishi, jamiyatning bir tizimdan ikkinchi bir tizimga o'tishi sotsial-ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy emirilishlarsiz, larzalarsiz sodir bo'lmasligini nazarda tutadigan bo'sak, bunday yutuqlarga, darajaga erishish oson bo'lmaydi. "Globallashuv sharoitida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari keskinlashadi, dunyoning rivojlangan mamlakatlari va ularning bellashuvlari geosiyosiy ta'sirlarini yana-da oshirish uchun, geosiyosiy muammolarni hal qilishda ishtirok etish huquqini qo'lga kiritishlari uchun raqobat kuchayadi. Bunday kurashlarda muvaffaqiyatga erishish ko'p jihatdan davlat axborot siyosatiga bog'liq bo'lib, u bir tomonidan, jamiyat axborot sohasining rivojlanish sharoitlarini, ushbu sohaning jamiyat jadal rivojlanishiga imkon berishi qobiliyatini, fuqarolar hayot darajasi o'sishini, mamlakat mudofaa qobiliyatni va xavfsizligi oshishini belgilasa, ikkinchi tomonidan, jamiyatning nisbatan faol kuchlarini umumiy ishlarga, jamiyatning ma'naviy salohiyati mustahkamlanishiga, uning raqobatbardoshligi oshishiga jalb qilish imkoniyatlarini ta'minlaydi" [13]. Haqiqatan ham, mamlakatda OAV va jamoatchilik nazoratining ta'siri, obro'y, imkoniyatlari, ularning salohiyati tobora ortib borishi davlatning ham, fuqarolik jamiyatining ham mustahkamlanib borishiga sharoit yaratadi. OAV o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishi ta'minlandi.

Uchinchidan, OAVlar zamonaviy demokratianing fundamental institutlariga aylanish jarayonlari bilan bog'liq holatlar insonning erkin fikrashi va uni erkin ifoda eta olishi uchun ushbu institutlarning maydon va tribuna vazifasini bajara olishida namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, jamiyatning demokratlashib borishi sharoitida fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini ro'yogba chiqaruvchi va kommunikatsiya funksiyalari ham aynan OAV zimmasiga tushishi tabiiy.

Sababi, fuqarolik instituti sifatida u boshqa jamoat va davlat institutlari bilan hamkorlikdagina mavjud bo'la oladi, jamiyat va davlat hayotida ro'y berayotgan jarayonlarga hamda davlat, shuningdek, munitsipal boshqaruv organlari tomonidan qabul qilinayotgan qarorlarga ta'sir ko'rsata olish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bunday salohiyat o'z-o'zidan OAVlarning jamoatchilik nazoratini samarali tarzda tashkil qila olish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Masalaning yana bir muhim jihat - OAV faoliyatidagi xolislik muammosidir. Bugungi kunda jahon miyosidagi o'ta ilg'or va ta'sirli axborot vositalari hamda markazlarning faqatgina ma'lum bir "buyurtmalar"ni bajarayotganligi, o'z ta'sischilari yoki moliyaviy ta'minotchilarining ko'rsatmalari asosida faoliyat yuritayotgani, ular tufayli esa axborotni butunlay noxolis ravishda tarqatayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu mavzu nihoyatda keng ekanligi va bu haqda keyingi tadqiqotda so'z yuritilishi sababli hozircha to'xtalmaymiz. OAVning jamiyat va davlat hayotida muhim ahamiyat kasb etib borishi nuqtai nazaridan aytish mumkinki, birinchidan, ular bugungi demokratianing fundamental institutlaridan biriga aylanib ulgurdi va OAV insonning eng oly huquqlarini ta'minlaydigan soha sifatida qaralmoqda.

Ikkinchidan, OAV jamoatchilik nazorati institutining eng muhim tarmog'i sifatida bugungi kun fuqarolik jamiyati rivojlanishida o'ta muhim rolni bajarishini inobatga olgan holda kelgusida ushbu salohiyatdan foydalanish lozim.

Uchinchidan, OAVning iqtisodiy, moliyaviy mustaqilligini ta'minlash bilan bir qatorda, ular faoliyatidagi xolislik, maqsadga muvofiqlik va bugungi kun talablari tamoyillarini ham joriy qilish masalalariga alohida e'tibor qaratish kerak.

FALSAFA

Jamiyatdagi muammolarning ko'payishi ijtimoiy faol fuqarolarni yana-da dadil bo'lishga undaydi, kundalik murojaatlarni bartaraf etgan holda umumxalq ahamiyatiga ega bo'lgan masalalarga e'tibor qaratishga jalb etadi. Davlat etakchiligidagi "yuqoridan", xalq vakillari ishtirokisiz amalga oshiriladigan demokratlashtirish hamisha ham jamiyat manfaatlarini ifodalamaydi. Bunday amaliyot salbiy oqibatlarga, jumladan, fuqarolarning inertlashuviga, o'z huquq va manfaatlarini to'liq anglamaslik, ijtimoiy hayotda yuzaga keladigan muammolarga qarshi kurashish ko'nikmasining shakllanmasligiga olib keladi. Davlat-jamiyat munosabatlarida yuzaga keladigan bunday murakkabliklarni bartaraf etishning samarali institutlaridan biri bo'lgan jamoatchilik nazorati ilmiy-nazariy yondashuvni talab etadi. Biz tadqiqotimizning bu qismida, jamiyatda jamoatchilik nazorati o'rnatishda OAVning ishtiroki haqida fikr yuritar ekanmiz, mazkur masalaning nazariy-sotsiologik asoslarini keltirishni o'rinni, deb hisoblaymiz. Chunki ayni holat tahlil qilinmas ekan, OAVning ta'sir doirasini belgilash mushkul kechadi. Albatta, bu o'rinda zamonaviy G'arb mamlakatlarida ilgari surilayotgan mulohazalarni ham e'tiborga olmoq lozim.

XULOSA

Agar axborotni tarqalish tomonidan olib qarasak, sotsiologik jihatlarga ko'ra, jamoatchilik nazorati bevosita va bilvosita, ijobiy va salbiy, kuch yoki tavsiya vositasida, anglangan yoki anglanmagan, rasmiy yoki norasmiy, yaratuvchi va buzg'unchi, tabiiy yoki sun'iy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Buni quyidagicha tadqiq etish mumkin: Oila, qarindoshlar yoki mahalla tomonidan tarbiya ko'rinishida, u yoki bu salbiy xatti-harakatni qoralash yoki aksincha, ijobiy axloq, intizomni e'tirof etish orqali amalga oshirilgan nazorat bevosita nazorat deyiladi. Bilvosita nazorat deganda, jamiyat a'zolari, milliy, diniy urf-odatlar, an'analar yordamida amalga oshiriladigan tarbiyaviy jarayon nazarda tutiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Umarov B. Globalashuv ziddiyatlari: iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlari. –Toshkent.:Ma'naviyat, 2006. – B. 89.
2. Соколов А.В. Информационное общество в виртуальной и социальной реальности.–Санкт Питербург.Алтея, 2011. – С.335-336.
3. Лашенов А.Н. Аналитика постиндустриального общества: от кибернетических к социологическим теориям. //Журнал социологии и социальной антропологии.М.: 2006. Том IX. № 4. – С.5.
4. Соколов А.В.Информационное общество в виртуальной и социальной реальности. – Санкт Петербург: Алтея, 2011. – С.170-173.
5. Тоффлер Э. Демассификатсия средств массовой информации. Третья волна. (Глава 13) – Москва: ACT, 2004. – 781 с.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022–2026 yillarga mo'jallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni// <https://lex.uz/docs/5841063>
7. 1.Jo'rayev N. Tarix falsafasining nazariy asoslari. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B 419-420.
8. Hamrayev R. Jamoatchilik palatasi – qonuniy manfaatlarni himoya qiluvchi kuch. [Elektron manba]: <http://www.adolat.uz/news/zhamoatchilik-palatasi-qonunij-manfaatlarni-himoya-qiluvchi-kuch>
9. [Электрон манба]: <http://www.lex.uz/acts/83472>.
10. В.Е. Чиркин Современное государство. Монография. –М.: 2001. – 412 с.
11. Бахрах Д.Н. Административное право. –М.: 2008. 47 стр.
12. Мезенцев Д.Ф., Материал в разделе «Государственная информационная политика и ее реализация в процессе формирования гражданского общества». В книге «Роль СМИ в формировании гражданского общества», –М., 2006, –стр.17.
13. Стрельцов А.А. Государственная информационная политика: основы теории. –Москва: МЦНМО. – 2009. –С. 5.